

LATIFA HAMDA KULGI QO'ZG'ATUVCHI BOSHQA JANRLARNING QIYOSIY TALQINI

Feruza TEMIROVA

Tayanch doktoranti

Navoiy davlat pedagogika instituti

Navoiy, O'zbekiston

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛАТИФА И ДРУГИХ ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ЖАНРОВ

Феруза ТЕМИРОВА

Базовый докторант

Навоийский государственный педагогический институт

Навои, Узбекистан

COMPARATIVE ANALYSIS OF JOKES AND OTHER GENRES OF LAUGHTER

Feruza TEMIROVA

Doctoral student

Navoi State Pedagogical Institute

Navoi, Uzbekistan f-temirova@list.ru

UDC (УО'К, УДК): 82-7

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Temirova F. Latifa hamda kulgi qo'zg'atuvchi
boshqa janrlarning qiyosiy talqini.//

O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5
(52). — B. 218-229,

<https://doi.org/10.36078/1697523146>

Received: September 04, 2023

Accepted: October 03, 2023

Published: October 05, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada latifa va boshqa kulgi qo'zg'atuvchi janrlar haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan bir qator kulgi qo'zg'atuvchi janrlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlariga e'tibor qaratilgan. Maqolaning asosiy maqsadi latifaning adabiyotdagi xalqchil va eng yashovchan janr ekanligini ochib berishdan iborat, shuningdek, hajviyotning publitsistika, dramaturgiya va folklordagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Hajviy janrlarning har biriga alohida izoh keltirilgan va misollar orqali tahlil qilingan. Har bir hajviy janrni tahlil qilishda uning ilk paydo bo'lgan kezlari hozirgi davrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari aytib o'tilgan hamda ushbu janrlarning rivojiga hissa qo'shgan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari va ularning asarlari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola hajviy janrlarning tarixiy va zamonaviy namunalari uyg'un holatda aks ettirilgan. Barcha hajviy janrlarni qiyoslash orqali ularning latifa janriga o'xshash xususiyatlari va farqli jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Maqola so'ngida latifa janriga kengroq to'xtalib o'tilgan bo'lib, mazkur janrning adabiyotshunoslikdagi o'rni izohlangan. Maqolada ensiklopedik lug'atlar, ilmiy nashrlar va ilmiy maqolalardan foydalanilgan. Misollarda esa publitsistik adabiyotning XX asrdagi namunalari keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: masal; yumor; hajv; latifa; felyeton; epigramma; lof; askiya; tanqid; tarbiya.

Аннотация. В статье рассматриваются латифа и другие юмористические жанры. Автор провел их сравнительный анализ, обращая внимание на их общие и различные стороны. Основная цель статьи — показать, что латифа является наиболее популярным и жизнеспособным жанром в литературе, а также обозначить значение юмора в публицистике, драматургии и фольклоре. При анализе каждого юмористического жанра

обозначены этапы его развития, даны сведения о представителях узбекской и мировой литературы и их произведениях, внесших вклад в его развитие. В конце статьи более подробно рассматривается жанр латифа и делается вывод, показывающий его значение в литературоведении.

Ключевые слова: притча; юмор; анекдот; фельетон; эпиграмма; похвала; критика; воспитание.

Abstract. This article covers jokes and other funny genres. The author conducted a comparative analysis of a number of comedy genres, paying attention to their common and different aspects. The article's main goal is to reveal that the joke is the most popular and viable genre in literature, as well as to show the importance of humor in journalism, drama and folklore. Each comic genre is explained separately and analyzed with examples. When analyzing each comic genre, the stages of its development from the first to the modern period are indicated, and information is given about representatives of Uzbek and world literature and their works that contributed to the development of these genres. The article reflects historical and modern examples of comic genres in a harmonious state. By comparing all comic genres, their similar characteristics and differences with the joke genre are shown. At the end of the article, the genre of the anecdote is examined in more detail, and a conclusion is drawn showing the importance of the anecdote in literary criticism. The article uses encyclopedic dictionaries, scientific publications and scientific articles. The examples provide examples of journalistic literature of the XX century.

Keywords: parable; humor; anecdote; feuilleton; epigram; praise; criticism; education.

Kirish. Kulgi jarayoniga bo'lgan intilish emotsional jihatdan boshqa hissiyotlardan ustun turadi va u o'z navbatida turli psixologik, emotsional, intensional xususiyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan kulgi o'ziga xos madaniy ahamiyatga ega va xalqning madaniy-milliy xarakteri hisoblanadi. Hajv san'ati — o'zbek adabiyotining eng ta'sirchan quroli hisoblanib, nafaqat yumoristik, balki nafis satirik xarakterga ega asarlar talaygina. Adabiy-badiiy asarlarda kulgi vositasidan qurol sifatida mohirona foydalanilgan. Asarlarda bir vaqtning o'zida falsafiy, pand-nasihat, tanqidiy, tarbiyaviy, masxaralash ruhida yengil hajviyot vujudga keladi. Yozuvchilar kulgi vositasi orqali jamiyatdagi, o'y-xayollaridagi, insonlar tabiatidagi qusurlarni ifoda etishni maqsad qilishadi. Dunyo adabiyotida kulgi qo'zg'atuvchi janrlarning bir necha turlari mavjud: ularni og'zaki yoki yozma, nasriy yoki nazmiy shakllarda uchratish mumkin. Masalan masal, felyeton, epigramma, hajviy hikoya, parodiya, komediya, latifa (anecdotes, jokes), lof, sketch, tez aytish, yumoristik topishmoqlar, komik miniatyura (komikslar).

Asosiy qism. Masal — “ta’limiy xarakterdagi didaktik adabiyot janri hisoblanib, mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag’ishlaydi. Asosan nasriy janr, ba’zida esa kichik she’riy shakllarda ham uchraydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo’lib, xotimasi, ta’limiy xulosasi maqol, hikmatli so’z va iboralar tarzida bo’ladi”(5, 498). Masal janri didaktik adabiyotga xos bo’lib,

Farididdin Attor, Navoiy, Rumiylar ijodida eng go'zal namunalari uchraydi. Masal janrining eng mashhur va yirik namunalari Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida mohirlik bilan namoyish etilgan.

G'arb adabiyotida ham masal janri mavjud bo'lib, u "fables" deb yuritiladi va lug'atlarda quyidagicha izoh berilgan: "Masal — asosan bosh qahramon qilib hayvonlar olinadiga axloqiy ta'lim-tarbiya beruvchi hikoyadir" (17). G'arb adabiyotida Ezop, Fedr, Lafonten, Krilov, S. Marshaklar masal janrining yetuk namoyandalari sifatida tan olinganlar. Masalan, Ezopning "Tovuq bilan tulki" masali:

Baland daraxt shoxiga qo'nib, qag'-qag'lab yotgan Tovuqning tovushi butun o'rmonga taralib, ochlikdan sillasi qurigan Tulkining e'tiborini tortibdi. Tovuqning baland shoxda turganini ko'rgan Tulki uni hiyla bilan pastga tushirib, yemoqchi bo'libdi.

— *Kechirasan, qadrdonim Tovuq, — deb gap boshlabdi u, — sen yirtqichlar bilan qushlar, umuman, o'rmonimizdagi barcha jonzotlar o'rtasida tuzilgan tinchlik bitimi haqida hali eshitmadingmi? Bundan keyin biz bir-birimizni ovlamaymiz, aldamaymiz va o'g'irlamaymiz, balki tinchlikda, hamjihatlikda yashaymiz. Pastga tush, bu haqda yaxshilab gaplashib olamiz.*

Tulkining mug'ombirligini yaxshi bilgan Tovuq hech narsa demay, xuddi bir narsaga tikilgandek yo'lga qarab turaveribdi.

— *Nimaga buncha tikilib qolding? — deb so'rabdi Tulki.*

— *Men bir to'da itlarni ko'rayapman, — debdi Tovuq, — adashmasam, ular biz tomonga kelshyapti, janob Tulki.*

— *Shunaqami, unda men ketishim kerak, — debdi Tulki.*

— *Iltilmos, janob Tulki, ketmay turing, — debdi Tovuq, — men endi tushmoqchi bo'lib turuvdim. Keling, itlarni kutib turamiz, ular kelgandan so'ng tinchlik bitimini birga muhokama qilamiz.*

— *Yo'q, yo'q, — debdi Tulki, — men ketishim kerak, itlar hali tinchlik bitimi haqida eshitmagan bo'lishlari mumkin.*

Qissadan hissa: To'satdan taklif qilingan do'stlikdan ehtiyot bo'ling (2).

Ushbu keltirib o'tilgan masalda yengil yumor orqali o'quvchilarga pand-nasihat berish, ularga oq-qorani ajratishga ko'maklashish maqsad qilingan. Insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar masalda ana shunday kinoyaviy obrazlar orqali ifodalanadi. Darhaqiqat, masal va latifalardagi obrazlar asrlar davomida asardan-asarga ko'chib yuradi. Ular o'rtasidagi farq esa masalda allegoriya, ya'ni qahramonlar ko'pincha hayvonlar, qushlar, narsa-predmetlar obraziga ko'chadi. Masalning g'oyaviy-estetik vazifasi shundaki, majoziy obrazlar orqali muammolarga yechim izlanadi. Masal so'ngida muallif tomonidan mo'jazgina maqol yoki qissadan hissa beriladi va piching tili orqali pand-nasihat berish maqsad qilinadi. Masal didaktik adabiyot mahsuli hisoblansa-da, bir vaqtning o'zida yumor, tanqid va tarbiyani aks ettirganligi bilan eng qiziqarli janrlardan biridir.

Shunday xarakterga ega publitsistik adabiyot janrlaridan biri felyetondir. Felyeton — "ijtimoiy hayot masalalarini satira va yumor vositasi bilan, ya'ni ijtimoiy kulgi asosida yoritadi hamda ijtimoiy tanqid uchun xizmat qiladi. Mazkur janrning asosiy vazifasi —

jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tomonlarini qamrab olgan holda, o'zida aks ettirish, mazkur sohalarida uchraydigan kamchilik va nuqsonlarning tugatilishiga erishish, jamiyat hayotining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat" (12, 215). Dastlab, felyeton matbuotda taqdim etilgan ijtimoiy-siyosiy va adabiy-tanqidiy maqolalar ko'rinishida bo'lgan. Maxtumquli va Ogahiyning maqolalari "Turkiston viloyatining gazetasi"da ushbu rukn ostida chop etilgan. Keyinchalik faqat tanqidiy ruhdagi maqolalar kulgili tusga aylantirilib, ommalasha boshladi. Felyeton publitsistik sohaning alohida manbai bo'lib, maqsadi ijtimoiy muammolarning fosh etilishiga, kamchilik va illatlarning tugatilishiga erishishdir. Ushbu janr faktga asoslangan, aniq hayotdan olingan muammolarni hajviy mushohada qilish yo'li bilan jamiyat hayotining taraqqiyotiga hissa qo'shishga xizmat qiladi. Yurtimizda eng ommabop felyetonlar yaratgan jadid ulamolarari — Furqat ("Hind nayrangbozi Yorkentda"), Abdulla Qodiriy ("Toshkent boylari", "Kalvak mahzumning xotira daftari") va Abdulla Qahhor ("Quyoshqon") ushbu janr rivojiga beqiyos hissa qo'shganlar.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "Julqunboy" taxallusi ostida "Ishtirokiyun" gazetasining 1920-yil 8-maydagi sonida chop etilgan felyetoni hajviy va tanqidiy publitsistika namunalaridan biridir:

Negakim

Elbekka bag'ishlab

Elbek o'zining maqolasida nega "negakim"ni ko'b yozadir?

— *Negakim, Elbekning tuprog'i "negakim" degan yerdan olinub, "kim-kim" degan daryoning suvidan aralashdirilib, loy qiling'ani uchun.*

Mirmulla aka nega Hamza Hakimni ilgarigidek yerga urmay mahtiy boshladi?

— *Negakim, Hamza Hakim jonidan to'yg'anidan so'ng Mirmullag'a sohnada afsun o'qub, dam urgani uchun.*

Janob saodatmaob, muhtaram "Nomakob"ning yozg'an falsafalariga nega men tushunmayman?

— *Negakim, janob "Namakob" o'rtacha olim bo'lgani uchun.*

Nega xalq betoblanub, sayohat jabdug'ini tuziy boshladi?

— *Negakim, ramazon oyi yaqinlashgani uchun.*

"Ishtirokiyun" gazetasi nega bir kun chiqub, bir kun chiqmay oqsay boshladi?

— *Negakim, harf teruvchi xizmatchilarni hukumat ortiqcha to'ydirib, qorun soldirg'ani uchun.*

Nega gazetalarga turklar borasida dahanaki ur-ur, sur-sur, janjal, to'polonlar bosilib qoldi?

— *Negakim hamma janjal afandining choponi ustida bo'lg'ani uchun.*

Nega men "Nashriyoti G'ozu Yunus" haqinda yozmadim?

— *Negakim, bunga xos qasidaning borlig'i uchun.*

Nega so'zingni shu yerda to'xtatmoqchi bo'lasan?

— *Negakim, bundan ortig'ini zamon ko'tarmagani uchun.*

Julqunboy (1).

Mazkur felyetonda yumor va satira vositasi orqali jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, diniy va madaniy muammolarga urg‘u berilgan. Badiiy publitsistika mahsuli bo‘lganligi sababli tanqid, mubolag‘a, badiiy sarkazm, kinoya kabi badiiy unsurlardan mohirona foydalanilgan. Felyetonlar publitsistik adabiyot namunasi hisoblansa-da, tanqid va zaharxanda kulgini o‘zida aks ettirganligi bilan latifalarga o‘xshab ketadi. Ammo felyetonlar maqola shaklida bo‘lib, badiiy publitsistika qonuniyatlariga asoslanib yaratiladi. Faktga asoslangan muayyan davrdagi voqea-hodisalardagi muammolarni o‘zida kulgili ko‘rinishda aks ettiradi va bunday muammolarni tugatilishini maqsad qiladi. Latifa esa xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lib, asrlar davomida rivojlanib kelgan kichik hajviy janr undagi mavzular yillar o‘tib ham ahamiyatini yo‘qotmay zamonga moslashib kelaveradi. Shuning uchun ham latifa eng ommabop va yashovchan janr hisoblanadi. Bugungi kunda ham felyetonlar jurnalistika va publitsistikada keng omamalashmoqda hamda hayotda uchraydigan nuqsonlar, jamiyatdagi illatlarni fosh etishga xizmat qiladi.

Publitsistikaning ijtimoiy ahamiyatga ega hajviy janrlaridan yana biri epigramma hisoblanadi. Epigramma — “uncha katta bo‘lmagan kichik hajviy she‘r bo‘lib, odatda biror-bir shaxsga qarshi yo‘naltiriladi” (13, 231). “Epigramma paradoksal va satirik xarakterga ega she‘r yoki maqol shaklida bo‘lgan kimgadir mohirona urg‘u berish maqsadida qo‘llaniladi” (16). Epigramma Sharq va G‘arb publitsistikasida keng tarqalgan satirik janrlardan biri hisoblanadi va ko‘pincha tanqidiy xususiyatga, she‘riy ko‘rinishda bo‘ladi. Epigrammalar lotin adabiyotida miloddan avvalgi I-II mingyilliklarga borib taqaladi. Klassik uslubga xos bo‘lgan ushbu janr odatda she‘riy ko‘rinishda kimgadir qarshi munosabatni ifodalash uchun qo‘llanilgan. XVIII-XIX asrlarda rus adabiyotida epigrammalar keng tarqaldi va ommalashdi. Pushkin, Jukovskiy kabi shoirlarning ijtimoiy-badiiy va siyosiy kurashida epigrammalar o‘tkir qurol bo‘lgan. H.H. Niyoziy (“Bir sharmanda tilidan”, “Bir eshon o‘pkasi”) va G‘. G‘ulom (“Obakidandon”, “Istaklarim”) bir nechta epigrammalari bilan ma‘lum va mashhurdirlar (7, 363.). Masalan, G‘afur G‘ulomning 1924-yil “Mushtum” jurnali 11-sonida chop etilgan “Istaklarim” nomli epigrammasi e‘tiborga molik.

Istaklarim

*Bo‘yingdan aylanay, hazrat eshonim,
Vujudingdan bordir mening gumonim,
Yaqinlashsam senga — ketgay iymonim,
Aldamasdan bir kun tursang na bo‘lg‘ay?
Qoqindiq bo‘layin, chervonli boylar,
Kambag‘allar dastingdan voy-voylar,
Siz ham bizga bir kungina mollarni,
O‘n bahoga sotmasangiz na bo‘lg‘ay?
Sadag‘ang bo‘layin, olifta bangi,
Tullak bedanangning chiqibdi donggi,
Katta nasha qovoq hamrohdir senga,
Zamonaga bir qarasang na bo‘lg‘ay?*

*Boshingda parvona bo'layin, e, el,
Ashir oshi, halim uchun bog'la bel,
"Yetimlarga yordam" desa — yum ko'zni,
Sen ham bir oz ko'mak bersang na bo'lg'ay?
O'lqishlarim senga, mehnatkash mushti,
O'zini angladi — kinga musht tushdi,
Yasha, Mushtum pochcha, ko'p oyu yillar
Faqat tez-tez chiqib tursang na bo'lg'ay?(14, 168).*

Ushbu epigramma o'sha davrga mansub ijtimoiy muammolar: jamiyatdagi tengsizlik, savdogarlarning mug'ombirligi, din ulamolarining yolg'onchiligi kabi illatlarni kulgi ostiga olgan holda taqdim etgan. G'afur G'ulom satirik hajviyoti orqali yengil kulgi vositasida davr muammolarini aks ettirgan va uning satirik she'rlari "Mushtum" jurnalining sahifalaridan joy olib kelgan. Epigrammaning latifalardan farqi, epigramma hajviy poeziya janri hisoblanadi va aynan bir voqelik, davr yoki shaxsga nisbatan yo'naltiriladi, shuningdek, epigramma latifadan voqelikka aniq shaxsiy nuqtai nazardan yondashishi bilan ajralib turadi. Epigrammalarda tanqid muhiti kuchliligi, muammolarni ochiqlashga xizmat qilishi uni publitsistikada keng ommalashishiga zamin yaratdi. Latifalarda esa badiiylik xos; ular kichik hikoya tarzida namoyon bo'lib, tarixiy va mustaqil janr, ba'zida badiiy asarlar tarkibida uchraydi. Bugungi kunda ham publitsistikada epigramma janridan mohirona foydalanib kelinmoqda.

Aslida hajviyot adabiyotning asosiy qismini tashkil etadi. Hajviy asarlar nafaqat didaktik, publitsistik adabiyot, balki dramatik adabiyotning ham asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, "komediya — (yun. komodia — hushchaqchaq olomon) — hodisa, voqea, xususiyatlar kulgili ko'rsatilgan drama turi. Komediya ijtimoiy hayotdagi nuqsonlar, kishilarning ongi va xarakteridagi yaramas xususiyatlar kulgi vositasi bilan tanqid etiladi"(10, 671). Komediya tematik konflikt va hajviy yechimdan iborat yumoristik va satirik janr hisoblanadi. Komediya Sharq va G'arb mamlakatlari uchun juda ham ahamiyatli va qiziqarli komik mojarolarni tasvirlaydigan janr turi hisoblanadi. Komediya dramatik asar turi bo'lib, unda hayotdagi kulgili hodisalar tasvir etiladi, ijtimoiy yoki oilaviy mojarolar kishilar xarakteridagi be'mani kulgili xususiyatlar masxara qilinadi. Bunday asarlarda kishilarning ongida turmushida saqlanib qolgan eskilik sarqitlari kulgi bilan fosh etiladi (3, 79). Masalan, Hamzaning "Maysaraning ishi" komediyasi dinni niqob qilgan qozi, muftiy va eshonlarning odob-axloq to'g'risida aytgan gaplari va ularning maishiy buzg'unchiliklari o'rtasidagi ziddiyatlari vaziyatlarni ochib tashlaydi va masxaralaydi. Mashhur komedik asarlar "Revizor" (Gogol), "Og'riq tishlar", "So'nggi nusxalar", "Shohi so'zana" (Abdulla Qahhor), "Oltin devor" (Erkin Vohidov), "Kelinlar qo'zg'oloni" (Said Ahmad) o'quvchilar va tomoshabinlar orasida ma'lum va mashhurdir. Bunday komedik asarlar yozma adabiyotimizda juda ko'p uchraydi va bugungi kunda ham komediya janri dramatik sohada ham aktual hisoblanadi. Latifa ham xuddi

shunday hajviy va falsafiy ma'noga ega, ular o'rtasidagi farq esa, komediya kompozitsiya, hajm va janr jihatdan latifadan ancha katta va keng qamrovlidir.

Dunyo xalqlari folklorini hajviyotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Folklor-madaniyat va adabiyot uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan nodir namunalardir. O'zbek folklorinini esa askiya, lof, latifasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu janrlar o'zining tasodifiy kulgi xususiyatiga ega ekanligi bilan boshqa hajviy janrlardan ajralib turadi. Shunday janrlardan biri lof — "xalq og'zaki poetik ijodining hajviy-yumoristik janrlaridan bo'lib, mubolag'aga asoslanadi, maqsadi — kishilarda kulgi uyg'otish, shuningdek, u yoki bu hodisaga diqqatni jalb etish, tanqidiy munosabat bildirish" (11, 317). Lof janri ko'pincha askiyabozlik, masxarabozlik, qiziqchilik san'atiga yaqin turadi. Unda tabiatda va jamiyatda bo'ladigan voqea-hodisalar bo'rttirib muqoyasa ("taqqoslash", "baholash", solishtirish") (9, 662) yo'li bilan ko'rsatiladi. Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lganligi bois xalq yig'inlari, sayillar va tomoshalarda askiyabozlar tomonidan ijro etiladi va lof aytuvchilar tomonidan hozirjavoblik, so'zga chechanlik, sinchkovlik talab qilinadi. Yozma shaklda esa xalq dostonlari, ertaklar hamda latifalar tarkibida uchraydi (5, 319). Masalan,

— *Qo'shnim xotining zulmiga chiday olmay, o'zini 6-qavatdan tashladi, — debdi zo'r gap topganday maqtanchoq Ali lofchi. — Lekin bechora qo'shnim norasida bolalarini o'ylab, 4-qavatga yetganda yana ortiga qaytdi.*

— *He, bu gap hech narsa emas. Xotinini ko'rsa dag'illaydigan bir qo'shnim o'zini 30-qavatdan tashladi-yu, yarmiga yetganida parashyut esiga tushib, qaytib chiqdi, — debdi Vali lofchi.*

— *Shu ham gap bo'ldi-yu, — deb gapni ilib ketibdi Soli lofchi.*

— *Xotinidan o'lguday qo'rqadigan bir tanishim o'zini endi 7-qavatdan yerga otaman deb turganida, xotini ko'rib qolib: "Hoy, ortingga qayt!" degan ekan, u 2-qavatga yetganida, yana bir sakrab, 7-qavatga, xotining oldiga chiqib olibdi".*

Ana shunday loflarni eshitib turgan Mamarayim: "O'sha sen ko'rgan odaming men edim," — degan ekan (5, 320).

Yuqorida keltirilib o'tgan lofning ham maqsadi yengil yumor muhitida, hozirjavoblik va so'zga chechanlik borasida musobaqa yoki aytishuv muhitini yaratishdan iborat. Lofning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda notabiiy voqealar va salbiy belgilar kulgi ostiga olinadi. Xuddi askiya kabi ikki tomonning munozarasi va aytishuviga asoslanib, musobaqa shaklida namoyon bo'ladi. Loflarning badiiyati o'ziga xosdir. Unda mubolag'aning har uchala turi — g'uluv, tablig', ig'roq; o'xshatish, litota, jonlantirish, qarshilantirish juda ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa, mubolag'a loflarda alohida o'rin tutadi. Lofdagi mubolag'lash usuli ertak va dostonlarda ham uchraydi. Loflarning mavzu ko'lami keng qamrovlidir. Ular mazmunan ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Xuddi latifa kabi loflarda insonlarga xos go'zal fazilatlar ulug'lansa, ayrim shaxslarga xos yaramas xatti-harakatlar hajv ostiga olinadi. Shuningdek, jamiyatda uchraydigan illatlar ham loflarda satira tig'i bilan fosh etiladi. Kompozitsion jihatdan loflar latifalardan farq qiladi, chunki loflarning kompozitsion

asosini dialoglar va bahslar tashkil etadi. Lofda ijrochilar va tinglovchilar bo'lganligi bois dramatik adabiyot mahsuli sifatida e'tirof etiladi. Shunday xususiyatga ega yana bir folklor janri askiyadir. Askiya — o'zbek xalq og'zaki ijodi turi, folklor janrlaridan biri. Ikki va undan ortiq kishi, guruhlarning badiiy so'zda hajviy tortishuvi, ya'ni bahsi hisoblanadi. Sayil, xalq yig'inlari yoki bayramlarda askiyachilar biror mavzu yuzasidan bahsga kirishishadi, bir-biriga qarama-qarshi tomonlar o'sha mavzuga doir mazmunli, ta'sirli, kulgili va chuqur ma'noli jummalarni aytishlari kerak. Bunda qo'pollik, palapartishlikka yo'l qo'yilmaydi. Yakunida eng ziyrak va topqir tomon g'olib hisoblanadi. Zukkolik va hozirjavoblik askiyaning eng muhim prinsipidir, ya'ni askiyada tilning qochirim, so'z o'yini, o'xshatish, mubolag'a, kinoya kabi vositalaridan ustalik bilan foydalana bilish muhimdir. Asrlar mobaynida so'z ustalari askiya janrini keng targ'ib qilganlar, chunki askiya aqlni charxlash, muayyan sohada bilimlarni kengayishiga, ziyrak va hozirjavob bo'lishga sabab bo'ladi, deb hisoblashgan. Askiya alohida janr sifatida XV asrda shakllangan bo'lib, Mavlonoyi Burxon Lang, Mavlonoyi Abdulvose', Muhammad Badaxshiy kabi mashhur askiyabozlar yashab ijod etganlar. Askiyani yozma shaklda adabiyotda uchratish qiyin. Ammo "Alpomish", "Kuntug'mish" dostonlarida qahramonlar tilidan askiyaga o'xshash so'z o'yinlari, qochirimlarning guvohi bo'lamiz. 1960-yilda San'atshunoslik instituti folklorshunoslari tomonidan ko'plab askiya aytishuvlari plastinkalarga yozib olingan. Bugungi kunda askiya kechalari, musobaqalari o'tkazilib turadi va tasvirga olinib, tomoshabinlarga havola etilib kelinmoqda (3, 33). Askiya janrini keng o'rgangan va askiya namunalarini to'plab taqdim etgan olim Rasul Muhammadiyev askiyajanriga shunday ta'rif keltirib o'tgan: "Satira va yumorga asoslangan askiya inson tafakkurining hozirjavobligini, zehni o'tkirligini, aql-idrok donoligini bildiradi, uning negizida so'z o'yinlari qochirimlar, chandishlar, kinoyalar, mubolag'alar yotadi, askiya fikrlash musobaqasidan iborat so'z san'atidir (4, 5)." Askiyada ba'zi so'zlarning o'rni almashtirilib yoki buzib aytilishi ko'p uchraydi. Bu orqali piching qilish yoki biror nimaga ishora qilish maqsad qilinadi. Masalan,

Shaxmat

Oxunjon. Erkinboy aka, hamma sizga nazar solyapti, hadeb shohona yurishlar qilaverasizmi, biror marta piyoda yurib qo'ysangiz-chi!

Ozod aka. Mulla Oxunjon, Erkinboyga unaqa demang, u kishining fe'li yomon, piyodani ko'rди, bo'ldi, sipohgarchilik qilib, narigi chekkaga surib qo'yadilar.

Oxunjon. Hali Erkinboy ana shunaqa shohmila, bo'lmasa men bilan o'ynasinlar — ruhlarini o'zim qochiraman!

Erkinboy. Shahmat o'ynagan odam ot o'ynashni ham biladi-da! Oxunjon otimni olaman deb, ruhimni ko'tarib yuribdi.

Ozod aka. Oxunjon sipogarchilik qilgandir, lekin sizdaqasi bo'lmaydi. Erkinboy aka bo'lar-bo'lmasga filday qilib korsatadilar-u, yo'llarini biror piyodakash to'sib qolsa, g'ing deyolmay o'tiradilar.

Oxunjon. Uning ustiga Erkinboy akamning maqtanishlarini aytmaysizmi: otim ochmas deb.

Shavkatjon. U kuni Erkinboy aka: "Shohimning ham ko'zi ochmas" devdilar, gaplariga ishonmadim — to o'zim borib, piyoda bilan farzinni urib, ko'zini ochib qo'ymaguncha!

Erkinboy aka. Shaxmat degani bir kishi bilan bir kishi o'ynaydi. Hammalaring Oxunjonga o'rgataverib meni mot qilmoqchimisizlar? Boringlar: "kisht-kisht"ga toqatim yo'q.

Ozod aka. Oxunjon sizga jo'rttaga "kisht" deyapti, ehtiyot bo'ling, sizni burchakdagi katakka tiqmoqchi!" (4, 72)

Darhaqiqat, askiyaning va latifaning maqsadi o'xshash: yengil kulgi muhitini yaratish va tomoshabinlarga zavq ulashish. Askiyaning latifadan farqlari shundaki, askiya dramatik ijod mahsuli og'zaki va bahs-munozara, aytishuv kabi xossalarga asoslanib, sahnada ijro etish uchun mo'ljallangan. Askiyada tomonlar bir mavzuda 10-20 daqiqagacha aytishuvlar qilishadi va muhit asosan tortishuvga asoslanadi. Latifalar esa tuzilish jihatdan kichik hajviy hikoya shaklida bo'ladi. Unda yagona qahramon mavjud bo'lib, ma'lum mavzu yuzasidan satirik yoki yumoristik xarakterga ega bo'lgan syujetdan iborat. Shunday ekan, latifalar askiyadan obraz, bayon qilish uslubi va tuzilishi bilan farq qiladi.

Shunday qilib, komiklikning barcha nutqiy janrlari prototipi (o'xshashligi) maishiy muloqot ko'rinishidagi hazillar hisoblanadi (15, 144). Ya'ni hajviy asarlar — ijtimoiy hayot mahsuli. Ular qanchalik mubolag'a, o'xshatish, tanqidga o'ranmasin, odamlar hayotidagi voqea-hodisalar, muammolarga moslashaveradi. Ana shunday ham hayotiy ham hajviy janr latifa hisoblanadi. Shuning uchun uchun ham latifalar folklor va adabiyotning uyg'unlikdagi mukammal namunasi. Latifalar tadqiqot obyektimiz bo'lganligi bois ularga kengroq ta'rif beramiz. Latifa janri xususida kengroq to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "latifa" (arab. — mutoyiba, hazil) — xalq hajviyoti janrlaridan bo'lib, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya. Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Latifalar qahramoni jonli va ta'sirchan so'zlaydigan, hazil-mutoyibaga boy, haqiqat va adolatni himoya qiluvchi hozirjavob shaxs. Latifa syujetini qochiriq, kesatiq, piching to'la hajviy epizod va holatlar tashkil etadi. Sarguzasht xarakteridagi syujet sodda va lo'nda ifoda etiladi. Latifalar xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida paydo bo'lib, rivojlanib vaqt o'tgan sari yozuvchilar tomonidan takomillashtirilib, miqdori va sifati oshib boran. Latifaning ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston" asarlarida uchraydi. Latifa janri XI asrdan keyin keng shakllandi va rivoj topdi. Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlarida ham latifalarni uchratish mumkin va ular xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan.

Latifa — o'zbek folklorining keng tarqalgan mustaqil epik janrlaridan biri hisoblanadi. U hajman kichik va mazmunan lo'nda

bo'ladi yoki bir-ikki epizoddan tashkil topgan bo'ladi. O'zbek latifalarini yaratuvchi epizodlar fosh etuvchi yoki muloyim kulgini, hazilni yaratuvchi xususiyatga ega. Latifa asosida yotuvchi o'tkir hajv yoki yengil yumor tanqidiy-estetik vazifani bajaradi hamda voqeahodisa yechimida hal qiluvchi rol o'ynaydi va natijada, qahramonning g'alabasini, ayni paytda qarshi tomonning kulgili holatdagi mag'lubiyatini ta'minlaydi (8, 110). Masalan,

Afandi madrasada arabcha o'qir edi. Domla bir kuni uni imtihon qilmoqchi bo'lib so'radi:

— *Afandi, arablar buzoqni nima deydi?*

— *Arablar buzoqni sigir bo'lguncha sabr qiladilar, sigir bo'lgandan keyin*

“baqar” deyдилar deb javob beribdi (6, 108).

Ushbu latifada samimiy hajviy muhit yaratilgan: so'zga chechanlik, hozirjavoblik va mug'ombirlik. Aslida bu xususiyatlar barcha latifalarning asosiy xarakteri hisoblanadi. Latifaning yuqorida izohlab o'tilgan boshqa hajviy janrlardan farqi uning realistik xarakteri, kompozitsion jihatdan ixchamligi va ko'zlagan nishonga tez yetib borishi hamda xushchaqchaq ruhi bilan tubdan farq qiladi. Hajviy ertak va hikoyalardan hajmi, mavzusi, syujet va kompozitsion xususiyalari soddaligi bilan farq qiladi. Hayotning kichik bir lahzasi ko'rsatiluvchi latifalarda bir-birini inkor qiluvchi ikki xil xarakter o'z ifodasini topadi. Masalan, yaxshi va yomon, boy va kambag'al, dono va ahmoq, mug'ombir va anqov hamda boshqalar. Latifada mavzular hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi: maishiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy va hokazolarda insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarni namoyon etib, yengil yoki achchiq kulgi ostiga olish bilan ifodalanadi. Latifalar asosan xalq turmush tarzi, hayoti, muammolari zamirida yuzaga kelgan.

Latifa kichik janr turi sifatida badiiy hamda adabiy janrlar kesimida yuzaga kelgan bo'lib, u ko'proq og'zaki nutqda amal qiladi. Shuning uchun ham latifalarning ifodalanishi badiiy-estetik muloqot sharoitida kognitiv, stilistik, semantik qayta shakllanishga uchraydi.

Xulosa. Latifalarda nutqning dialogik shaklidan keng qo'llaniladi. Ular ijtimoiy-siyosiy va maishiy-hayotiy ma'noda bo'lishi mumkin. Kishilar fe'l-atvorida uchraydigan salbiy axloqiy xususiyatlarni inkor etib, soddalik, go'llik, savodsizlik, adolatsizlik kabi nuqsonlar ustidan kulgi uyg'otadi. Odamlarni hushyorlikka, mulohaza yuritishga chorlaydi. Xullas, latifalar o'zbek xalqining hozirjavoblik, donolik va kulgisevarlik kabi xislatlarini o'zida mujassam etgan madaniy va adabiy boyluk hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy “Negakim” / Ishtirokiyun, 8- may, 1920-yil.
2. Ezop masallari. — Toshkent: G'afur G'ulom, 2019. — 124 b.
3. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1970. — 340 b.
4. Muhammadiyev R. Xalq og'zaki ijodi. Askiya. — Toshkent: “Adabiyot va San'at”, 1970. — 280 b.

5. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. — Toshkent: Musiqqa, 2010. — 370 b.
6. Sarimsoqov B., Yo‘ldosheva F. Afandi latifalari. — Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1990. — 430 b.
7. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983. — 361 b.
8. Yusupova H.O‘. O‘zbek xalq og‘zaki nasri namunalarining inglizcha tarjimlalarida milliy koloritning ifodalanishi (ertaklar, latifalar misolida). Filol.fan.nom. ... diss. avtoref. — Toshkent, 2011. — 56 b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. — 482 b.
10. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. — 684 b.
11. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. — 560 b.
12. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 9-jild. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. — 654 b.
13. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. — Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. — 646 b.
14. G‘afur G‘ulom. Istaklarim. // Sharq yulduzi. — 1967. — № 9.
15. Шмелев А.Д., Шмелева Е.В. Русский анекдот: текст и речевой жанр. — Москва: Языки славянской культуры, 2002. — 144 с.
16. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/two>
17. <https://dictionary.cambridge.org/>

References

1. Abdulla Qodiriy. “*Negakim*” / Ishtirokiyun, 8- may, 1920-yil.
2. *Ezop masallari*, Tashkent: Gafur Gulom, 2019, 124 p.
3. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. *Adabiyotshunoslik terminlari lugati* (Dictionary of literary terms.), Tashkent: Uqituvchi, 1970, 340 p.
4. Muhammadiyev R. *Xalq ogzaki ijodi. Askiya* (Folklore, askia), Tashkent: Adabiyot va San‘at, 1970, 280 p.
5. Safarov O. *Uzbek xalq ogzaki ijodi* (Uzbek national folklore), Tashkent: Musiqqa, 2010, 370 p.
6. Sarimsoqov B., Yuldosheva F. *Afandi latifalari* (Anecdotes of Afendi, Tashkent: Adabiyot va sanat, 1990, 430 p.
7. Xatamov N., Sarimsoqov B. *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-uzbekcha izohli lugati* (Russian-Uzbek explanatory dictionary of literary terms), Tashkent: Uqituvchi, 1983, 361 p.
8. Yusupova H., *Uzbek xalq ogzaki nasri namunalarining inglizcha tarjimlalarida milliy koloritning ifodalanishi* (ertaklar, latifalar misolida). Filol.fan.nom. ... diss. avtoref. (Expression of national color in English translations of samples of Uzbek folk prose (for example, tales, anecdotes). candidate’s thesis, Tashkent, 2011, 56 p.

9. *Uzbek tilining izohli lugati* (Explanatory dictionary of the Uzbek language), 2-jild. Tashkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 482 p.
10. *Uzbekiston Milliy Ensiklopediyasi* (National encyclopedia of Uzbekistan), 4-jild. Tashkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003, 684 p.
11. *Uzbekistan milliy ensiklopediyasi* (National encyclopedia of Uzbekistan), 5-jild. Tashkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003, 560 p.
12. *Uzbekistan milliy ensiklopediyasi* (National encyclopedia of Uzbekistan), 9-jild. Tashkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 654 p.
13. *Uzbekiston Milliy Ensiklopediyasi* (National encyclopedia of Uzbekistan), 10-jild. Tashkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 646 p.
14. Gafur Gulom. *Sharq yulduzi*, 1967, No 9.
15. Shmelev A., Shmeleva E. *Ruskiy anekdot: tekst i rechevoy janr* (Russian joke: text and speech genre), Moscow: Yaziki slavyanskoy kulturi, 2002, 144 p.
16. <https://dictionary.cambridge.org/>
17. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/two>